

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

YAPON MUSTAMLAKACHILIK DAVRIDA KOREYA GAZETALARIDA XOTIN-QIZLAR RUKNLARI (“TONG-A ILBO”, “CHOSON ILBO” VA “MEIL SHINBO” MISOLIDA)

Abdusattorova Farangiza Akramjon qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, PhD doktoranti.

e-mail: abdusattorovafarangiza@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0003-2776-2304>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Yaponiya mustamlakachilik davrida (1910-1945) faoliyat yuritgan koreys gazetalarida xotin-qizlar ruknlarining paydo bo'lishi, rivojlanishi hamda ularda yoritilgan mavzularning mazmun- mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda davriy matbuot materiallari, tarixiy hujjatlar hamda zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida xotin-qizlar ruknlarining tematik tarkibi, ularning jamiyatdagi funksiyalari va ayollar ijtimoiy mavqeyining o'zgarishidagi roli yoritiladi. Tadqiqot natijalari Koreya matbuoti tarixida xotin-qizlar ruknlarining nafaqat axborot manbayi, balki ijtimoiy- madaniy o'zgarishlarni aks ettiruvchi muhim kommunikativ platforma bo'lganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Koreya, Yaponiya mustamlakachiligi davri, Koreya matbuoti, xotin-qizlar ruknlari, xotin-qizlar diskursi, “Tong-a Ilbo”, “Choson Ilbo”, “Meil Shinbo”, xotin-qizlar ta'limi, “Yangi ayol” (Shin yosong), milliy o'zlik, jurnalistika, modernizatsiya.

ЖЕНСКИЕ РУБРИКИ В ГАЗЕТАХ КОРЕИ В ПЕРИОД ЯПОНСКОГО КОЛОНИАЛЬНОГО ГОСПОДСТВА (НА ПРИМЕРЕ ГАЗЕТ “ТОНЪА ИЛЬБО”, “ЧОСОН ИЛЬБО” И “МЭИЛ ШИНБО”)

Абдусатторова Фарангиза Акрамжон кизи

Ташкентский государственный университет востоковедения, докторант (PhD).

Аннотация.

В данной статье анализируются возникновение, развитие и содержательные особенности женских рубрик в корейских газетах, издававшихся в период японского колониального господства (1910–1945 гг.). На основе материалов периодической печати, исторических документов и современных научных исследований рассматриваются тематическая структура женских рубрик, их общественные функции, а также роль в изменении социального статуса женщин. Результаты исследования показывают, что женские рубрики в истории корейской прессы являлись не только источником информации, но и важной коммуникативной платформой, отражавшей социально-культурные преобразования общества.

Ключевые слова: Корея, японский колониальный период, корейская пресса, женские рубрики, женщины, гендерный дискурс, “Тонг-а Ильбо”, “Чосон Ильбо”, “Мэиль шинбо”, образование женщин, “Новая женщина”, национальное самосознание, журналистика, модернизация.

WOMEN'S COLUMNS IN KOREAN NEWSPAPERS DURING THE JAPANESE COLONIAL PERIOD (CASE STUDY OF “DONG-A ILBO”, “CHOSUN ILBO” AND “MAEIL SHINBO”)

Abdusattorova Farangiza Akramjon qizi

Tashkent State University of Oriental Studies, PhD Doctoral Student.

Abstract.

This article examines the emergence, development, and content of women's sections in Korean newspapers published during the Japanese colonial period (1910–1945). Drawing on periodical press materials, historical documents, and contemporary scholarly literature, the study analyzes the thematic structure of women's sections, their social functions, and their role in the transformation of women's social status. The findings demonstrate that women's sections in the history of the Korean press served not only as a source of information but also as an important communicative platform reflecting the socio-cultural changes of Korean society.

Keywords: Korea, Japanese colonial period, Korean press, women's sections, women, gender discourse, Dong-a Ilbo, Choson Ilbo, Maeil Shinbo, women's education, New Woman (Sin Yosong), national identity, journalism, modernization.

Kirish. Koreyaning XX asr boshlarida Yaponiya mustamlakasiga aylanishi natijasida mamlakatda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy jihatdan tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ushbu davrda matbuot Yaponiya ma'muriyati nazoratida

bo'lsa-da, u jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlar, zamonaviylashuv va milliy ongning shakllantiruvchi muhim vosita bo'lib qoldi. Ayniqsa, an'anaviy qarashlar bilan bir qatorda gazeta va jurnallarda xotin-qizlar uchun maxsus ruknlarning paydo bo'lishi hamda ularda koreys ayollarining ta'lim olishi, oiladagi o'rni, mehnat faoliyati, sog'liqni saqlash, gigiyena va bolalar tarbiyasidagi ishtiroki kabi masalalarning yoritilishi alohida ahamiyat kasb etdi.

Shu bilan birga, ushbu ruknlar mustamlaka hokimiyatining mafkuraviy siyosati va koreys ziyolilarining milliy manfaatlarini o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ham o'zida aks ettirgan. Koreys matbuoti tarixiga e'tibor qaratilsa, 1876-1945-yillar mobaynida xotin-qizlar uchun maxsus gazetalar chop etilmaganini ko'rish mumkin. Biroq Koreyaning eng yirik kundalik gazetalar xotin-qizlar uchun maxsus ruknlar tashkil etib, ularning ijtimoiy-siyosiy bilimlarini oshirish hamda jamiyatning teng huquqli a'zosi ekanini targ'ib qila boshlagan.

Yaponiya mustamlakachiligi davrida (1910-1945), xususan, 1920-yillardan boshlab Koreyaning eng yirik milliy kundalik gazetalar bo'lgan "Tong-a Ilbo" (동아일보) va "Choson Ilbo" (조선일보) o'z sahifalarida xotin-qizlar uchun maxsus "Puinran" (부인란 - Xotin-qizlar sahifasi) ruknlarini joriy etgan [1; B. 50-54]. Bu sahifalar oddiy uy-ro'zg'or maslahatlari bilan cheklanmay, koreys xotin-qizlarining ijtimoiy ongi, huquqlari va ta'limini yuksaltirishda, shuningdek, tarixda ilk koreys ayol jurnalistlarining yetishib chiqishida muhim ijtimoiy-siyosiy minbar vazifasini bajargan.

Ushbu gazetalar xotin-qizlar sahifalari Koreya jurnalistikasi tarixida muhim burilish yasanagan. Tahririyatlar mazkur sahifalarni yuritish va xotin-qizlar muammolarini bevosita yoritish maqsadida ilk bor professional ayol muxbirlarni ishga qabul qila boshlagan. Masalan, Yi Dok Yop (이덕엽) va Ho Jong Suk (허정숙) kabi faol xotin-qizlar "Tong-a Ilbo" va "Choson Ilbo" nashrlarida xotin-qizlar bo'limi muharrirlari va muxbirlari sifatida faoliyat yuritib, ijtimoiy o'zgarishlarga turtki bergan.

Ushbu gazetalar xotin-qizlar sahifalarida G'arb madaniyati va zamonaviylik ta'sirida shakllangan "Yangi ayol" (Shin Yosong) imiji, ya'ni kalta soch turmaklari, zamonaviy kiyim-kechaklar va gigiyena qoidalari targ'ib qilingan. Shu bilan birga, oila va ro'zg'orni boshqarish, bolalar tarbiyasi hamda sog'liqni saqlashga oid amaliy tavsiyalar ham muntazam berib borilgan [2; B. 326-343].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA.

Bugungi kunda mustamlaka davri Koreya matbuoti bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, xotin-qizlar ruknlarining mazmuni, ularning rivojlanish bosqichlari hamda koreys ayollari ijtimoiy ongining shakllanishidagi o'rni alohida tadqiq etilishi zarur bo'lgan masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqotda, asosan, Koreya Milliy kutubxonasi arxivida saqlanayotgan "Tong-a Ilbo" va "Choson Ilbo" gazetalarining asl nusxalaridan foydalanildi. Shuningdek, Mikhail D. Shin [3; B. 186-224], Yang Jin Suk [2; B. 326-343] va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari ham tahlil qilindi. Koreya mustamlaka davri matbuoti haqida Kim Min Hvan, Pak Yong Gyu va Kim Mun Chong hammuallifligida yaratilgan monografiyada batafsil ma'lumot berilgan [4; B. 352]. Mazkur manbalar hamda qo'shimcha adabiyotlar foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

"Tong-a Ilbo" gazetasi 1920-yil 1-aprelda taniqli jamoat arbobi va tadbirkor Kim Sung So tashabbusi bilan tashkil etilgan. Gazetaning asosiy maqsadi xalqni ma'rifatli qilish va milliy ruhni uyg'otishdan iborat bo'lgan [4]. Yaponiya mustamlakachiligi davrida ushbu gazeta koreys milliy ozodlik harakatining eng muhim axborot manbalaridan biriga aylangan. Uning kunlik adadi 1928-1929-yillarda 40 ming nusxadan oshib, "Choson Ilbo" va "Meil Shinbo" gazetalaridan ham yuqori ko'rsatkichga erishgan.

Mazkur gazeta Koreya matbuotida birinchilardan bo'lib o'quvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot tizimini yo'lga qo'ygan. Bu esa oddiy xalq vakillariga o'z muammolari va mustamlaka davridagi hayoti haqida erkin fikr bildirish imkonini yaratgan [3; B. 186-224]. Gazeta sahifalarida koreys tilida yozilgan she'rlar va romanlarning muntazam chop etilishi yaponlashtirish siyosatiga qarshi madaniy qarshilik vositasi bo'lib xizmat qilgan.

1940-yil 10-avgustda Yaponiya hukumati Koreyadagi barcha mustaqil va koreys tilida nashr etiladigan gazetalar yopish siyosatini e'lon qilgach, "Tong-a Ilbo" hamda uning asosiy raqobatchisi "Choson Ilbo" majburiy ravishda faoliyatini to'xtatgan. Gazetaning bosmaxona jihozlari va binolari yaponparast nashrlarga musodara qilingan. "Tong-a Ilbo" faoliyati faqat 1945-yilda, Yaponiya Ikkinchi jahon urushida taslim bo'lib, Koreya mustaqillikka erishganidan keyingina qayta tiklangan.

Gazetaning 1920-yil 7-sentabr sonida tadbirkor Kim Gi Hongning "Usan" o'rta maktabiga 10 000 von miqdorida xayriya qilgani haqida maqola e'lon qilinib, uning ma'rifat yo'lidagi xayriya ishlari yuksak baholangan [5]. Shu sonning o'zida So Tan Song ismli qiz kollej talabasining "Oila va erta turmush qurish" mavzusidagi maqolasi ham chop etilgan. Unda oila "muqaddas dargoh" ekani, oila qurish faqat farzand tarbiyasi bilan cheklanmay, balki ma'naviy va ilohiy mazmunga ega institut sifatida talqin qilingan.

1920-yil 8-sentabr sonida "Kyongsong" qizlar maktabida Choson qiroli Kjongning xotira marosimida ishtirok etmay, maktabni muddatidan oldin tark etgan qiz talabalar jazolangani haqida ma'lumot berilgan. Mazkur maqolada ajdodlar ruhiga hurmat ko'rsatish muqaddas burch sifatida baholangan [6].

1922-yil 22-fevral sonida shved feministi Ellen Key hayoti va uning bir advokat bilan bo'lgan suhbat yoritilgan. "Ellenning mahorati" nomli ushbu maqolada ayollarning o'z huquqlarini faol himoya qilishi zarurligi ta'kidlangan [7].

Yana bir mashhur koreys gazetasi "Choson Ilbo" bo'lib, u 1920-yil 5-martdan boshlab nashr etila boshlagan [8]. Ushbu gazeta ham Koreya milliy harakatining yetakchi nashrlaridan biri hisoblangan. Gazeta sof koreys tilida chop etilgan bo'lib, uning faoliyati dastlab koreys tadbirkorlari va jamoat arboblari tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlangan.

Mustamlaka davrida gazeta faoliyati to'rt marta to'xtatilgan va yuzlab sonlari musodara qilingan. Shunga qaramay,

“Choson Ilbo” milliy ma’rifatparvarlik faoliyatini davom ettirgan. Jumladan, 1929-yilda gazeta butun Koreya bo’ylab **“V narod”** (*“Xalq ichiga”*) shiori ostida keng ko’lamli savodxonlik harakatini boshlagan. Mazkur harakatning asosiy maqsadi yozgi ta’til davrida talabalar va ziyolilarni qishloqlarga yuborib, oddiy aholiga koreys alifbosini o’rgatishdan iborat bo’lgan. Ushbu tashabbus koreys xalqining milliy o’zligini saqlash va yaponlashtirish siyosatiga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etgan. Gazeta ham 1940-yilda faoliyatini to’xtatgan va 1945-yilda yana qayta nashr etila boshlagan.

“Choson Ilbo” gazetasi maqolalarida G’arb uslubidagi kiyinish madaniyati, ayniqsa kalta yubkalar tanqid qilingan [9; B. 1–3]. Maqolalarda Choson sulolasi davrida koreys ayollari jamoat joylarida badanlarini to’liq yopib yurishgani eslatilib, zamonaviy qizlarning oyoqlarni ochib turadigan kalta yubkalar kiyishi koreys jamiyati uchun madaniy zarba sifatida baholangan.

Shuningdek, **“Shin Yosong”** (*“Yangi ayol”*) obrazining **“bob”** uslubidagi soch turmagi ham tanqid ostiga olingan. Bunda Konfutsiyning: **“Bizning tanamiz va sochlarimiz ota-onamizdan qolgan merosdir, shu bois ularga zarar yetkazishga haqqimiz yo’q”**, degan ta’limotiga zid harakat sifatida talqin qilingan. Gazeta maqolalarida **“Zamonaviy qiz”** (*Modern Girl*, koreyscha **Modungol**) qiyofasi kundalik hayotda me’yor va muvozanatni buzuvchi hodisa sifatida baholanib, uning an’anaviy konfutsiy qadriyatlariga zid ekani ta’kidlangan.

“Choson Ilbo”ning 1920-yil 22-iyul sonidagi **“Mustaqil xotin-qizlar – o’z xalqining bir mexanizmi”** nomli maqolada Koreyada xotin-qizlarning mustamlaka davridagi ta’limi va ozodlik kurashi haqida ma’lumot berilgan [10]. 1921-yil 2-mayda e’lon qilingan **“Vaseda yulduzlari”** nomli maqolada Yaponiyada ta’lim olgan uch nafar qiz talabaning hayoti va ularning faoliyati haqida ma’lumot berilib, barcha xotin-qizlarning ta’lim olishi zarurligi ta’kidlangan [11]. Ushbu gazetaning 1925-yil 25-oktabr sonida **“Amerika go’zali”** tanlovida g’olib bo’lgan Lanfiya xonimning kalta libosdagi surati chop etilgan [12]. Maqolada ushbu tadbirning muvaffaqiyatli o’tgani va unda 300 mingdan ortiq tomoshabin ishtirok etgani qayd etilgan. Keyinchalik bu holat Koreyada ham aks-sado berib, 1931-yil may oyida mashhur **“Samcholli”** jurnali mamlakatning birinchi **“Miss Korea”** (*“Koreya xonimi”*) tanlovini e’lon qilishiga turtki bo’lgan.

Shuningdek, **“Choson Ilbo”**ning 1934-yil 24-aprel sonida chop etilgan **“Maktabni jonlantirish”** nomli maqolada Mokpo shahridagi **“Jongmyong”** qizlar maktabini qayta tiklash va rivojlantirish bo’yicha Koreya xristian cherkovining qarori e’lon qilingan [13].

Yana bir kundalik gazeta — **“Meil Shinbo”** (*매일신보 – Kunlik xabarlar*) Yaponiya mustamlakachi hukumatining rasmiy gazetasi bo’lishiga qaramay, unda ham koreys ayollarining zamonaviy ta’lim olishi va yangi kasblarni egallashi haqida muntazam materiallar e’lon qilib borilgan. 1920-yil 2-iyuldan boshlab ushbu gazeta ilk bor rasmiy ravishda ayol jurnalistni ishga qabul qilgan [14; B. 51–71]. Shundan so’ng gazetada maxsus **“Puin kva Kachong”** (*부인과 가정 – Xotin-qizlar va oila*) sahifasi tashkil etilgan. Ushbu ruknda koreys an’anaviy qarashlaridan farqli ravishda xotin-qizlarning zamonaviy ta’lim olishi, muhabbat asosida turmush qurishi, zamonaviy uy-ro’zg’or yuritishi va zamon talablariga mos ravishda farzand tarbiyalashi kabi g’oyalar ilgari surilgan. Mazkur rukn 1923-yil sentabrdan 1924-yil dekabrigacha gazetada muntazam nashr etilgan [15; B. 219–247].

“Meil Shinbo” gazetasining 1923-yil 25-noyabr sonidagi xotin-qizlar ruknida zamonaviy oilada bolalarni gigiyenik toza muhitda voyaga yetkazish hamda jismoniy tarbiyaga e’tibor qaratish masalalariga bag’ishlangan ilk ma’rifiy maqola chop etilgan. 1924-yil 6-aprel sonida esa **“Shin Yosong”** (*“Yangi ayol”*) va uning bola tarbiyasidagi o’rni haqida maqola e’lon qilinib, unda tanqidiy fikrlar ham ilgari surilgan. Mazkur maqola e’lon qilingach, **“Shin Yosong”**larning bola tarbiyasidagi roli yuzasidan keng bahs-munozaralar yuzaga kelgan. Ayniqsa, bolalarni an’anaviy usulda qo’rqitish yoki jismoniy jazolash orqali tarbiyalashni tanqid qiluvchi materiallarning e’lon qilinishi alohida e’tiborga loyiq.

1924-yil may-avgust oylarida chop etilgan yakshanba sonlarida yoz mavsumida bolalar o’rtasida tarqaladigan yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida **“Oila shifokori maslahati”** rukni muntazam berib borilgan. Oilaviy munosabatlarga bag’ishlangan 1924-yil 16-noyabr sonida esa oilada er-xotin munosabatlarini zamon talablariga moslashtirish, an’anaviy oiladagi zulm va zo’ravonliklarga barham berish hamda uy bekasining oilaviy budjetni tejamkorlik bilan boshqarishi orqali bolalar ta’limi uchun jamg’arma yaratish masalalariga bag’ishlangan maqola chop etilgan [16; B. 95–104].

Yirik ommaviy axborot vositalari 1930-yildan boshlab xotin-qizlar uchun to’liq hajmdagi oylik jurnallarni nashr eta boshladi. Bu davrda tashkil etilgan ayollar jurnallari qatoriga **“Yosong Shide”** (*여성 시대 – Xotin-qizlar davri*), **“Yosong Choson”** (*여성 조선 – Choson xotin-qizlari*), **“Yoin”** (*여인 – Mahbuba*), **“Puin kongron”** (*부인 공론 – Xotin-qizlar munozarasi*), **“Hyunde kajong kongron”** (*현대 가정 공론 – Zamonaviy oila munozarasi*) hamda **“Manguk puin”** (*만국 부인 – Butun dunyo xonimlari*)ni kiritish mumkin [17; B. 201–230]. Ushbu jurnallar, asosan, gazeta va nashriyot kompaniyalari tomonidan chop etilgan.

1920-yillarda nashr etilgan ko’plab xotin-qizlar jurnallari tadbirkorlik faoliyatining qisqarishi yoki moliyaviy qiyinchiliklar sababli faoliyatini to’xtatgan va faqat ayrimlari saqlanib qolgan. Ular orasida faqat **“Chosun Ilbo”** nashriyoti tomonidan chop etilgan **“Yosong”** (*Xotin-qizlar*) hamda **“Tong-a Ilbo”** tomonidan nashr etilgan **“Shin kajong”** (*Yangi oila*) jurnallari faoliyatini davom ettirgan.

O’sha davr xotin-qizlar ruknlarida eng ko’p yoritilgan mavzular nikoh, tanishuv, an’anaviy va yangi ayollar o’rtasidagi farqlar, xotin-qizlar ta’limi hamda ishlaydigan ayollarning jamiyatga to’laqonli shaxs sifatida kirib borishi bilan bog’liq masalalar bo’lgan. Bundan tashqari, davrning ijtimoiy sharoitlarini aks ettiruvchi materiallar ham keng yoritilgan bo’lib, bu jurnallar, asosan, ta’lim, bandlik va nikoh kabi uch asosiy yo’nalishga e’tibor qaratgan. Buning sababi shundaki, ular gender tengsizligi va an’anaviy urf-odatlarini bartaraf etishga qaratilgan ko’plab maqolalarni chop etgan.

Biroq 1920–1930-yillar davomida **“Yangi ayol”** va jamiyat oʻrtasidagi munosabatlar asta-sekin uygʻunlasha boshlagan. Yaponiya hukmronligi davrida **“Yangi ayol”** koreys ayollarining zamonaviy qiyofasi sifatida talqin etilgan boʻlsa-da, xotin-qizlar jurnallarida ushbu tushunchaga oʻziga xos mazmun yuklangan. Unga koʻra, **“Yangi ayol”** qiyofasi, avvalo, **“dono ona va yaxshi xotin”** timsoli sifatida talqin qilingan. Mazkur qarashlarda xotin-qizlarning asosiy vazifasi ziyoli erkak uchun munosib turmush oʻrtogʻi boʻlish, teng huquqli sherik sifatida mustahkam oila qurish va farzand tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratishdan iborat ekani taʼkidlangan.

Yaponiya mustamlakachiligi davrida (1910–1945) Koreya matbuotida xotin-qizlar ruknlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari tarixiy manbalar hamda davriy matbuot materiallari asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, **“Tong-a Ilbo”**, **“Choson Ilbo”** va **“Meil Shinbo”** gazetalaridagi xotin-qizlar ruknlari nafaqat maishiy va oilaviy mavzularni yoritgan, balki koreys ayollarining taʼlim olishi, ijtimoiy faolligi, mehnat faoliyati, sogʻlom turmush tarzi hamda milliy oʻzligini anglash jarayonida muhim axborot maydoni vazifasini ham bajargan. Tadqiqot davomida xotin-qizlar ruknlarining mazmuni va yoʻnalishlari mustamlakachilik siyosati hamda koreys milliy ziyolilarining maʼrifiy qarashlari oʻrtasidagi murakkab oʻzaro taʼsir mahsuli ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, mazkur ruknlar orqali Koreya matbuotida ilk professional ayol jurnalistlar faoliyati shakllanib, xotin-qizlarning jamiyatdagi oʻrniga oid yangi ijtimoiy qarashlar rivojlana boshlagani asoslandi. Umuman olganda, mustamlaka davri koreys gazetalaridagi xotin-qizlar ruknlari milliy ozodlik gʻoyalari, zamonaviylashuv jarayonlari hamda anʼanaviy va zamonaviy qadriyatlar oʻrtasidagi murakkab dialektik munosabatlarni aks ettiruvchi muhim tarixiy-madaniy manba ekanligi ilmiy asoslandi.

Xulosa qilib aytganda, mustamlaka davri koreys matbuotidagi xotin-qizlar ruknlari va jurnallari koreys ayollarining huquqlari, taʼlimi va ijtimoiy mavqeining oʻzgarishida muhim omil sifatida xizmat qilgan. Mazkur manbalar Sharqiy Osiyo mintaqasida gender va ommaviy axborot vositalari tarixini oʻrganishga doir keyingi tadqiqotlar uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Guskova E. A., Kuzmin V. A. Korean Women during the Years of Japanese Colonial Rule (1910–1945) // History and Modern Perspectives. — 2020. — Vol. 2, No. 4. — P. 50–54.
2. Yang Jinsuk. The Gendered Construction of the Japanese Language-Learning Boom in Postcolonial Korea // Asian Studies Review. — 2025. — Vol. 49, No. 2. — P. 326–343.
3. Shin M. D. Reader-Created Content: The “Reader and Reporter” (Dokja wa Gija) Features in the Donga Ilbo, January–November 1925 // East Asian Publishing and Society. — 2024. — Vol. 14. — P. 186–224.
4. Kim Min-hwan, Park Yong-gyu, Kim Moon-chung. Iljegangjeomgi Eollonsa Yeongu (일제강점기 언론사 연구). — Seoul: Nanam, 2008. — 352 p.
5. Tong-a Ilbo (東亞日報). — 1920.09.07.
6. Tong-a Ilbo (東亞日報). — 1920.09.08.
7. Tong-a Ilbo (東亞日報). — 1921.02.22.
8. Kim Y. J., Nakajima N. The Historical Change of the Perception of Greater Colonial Seoul (1920–1935) // International Planning History Society Proceedings. — 2024.
9. Cho Seunghye. Ideology of Korean Modern Girl’s Fashion During 1920–1940 // Innovate to Elevate. — 2022.
10. Choson Ilbo (朝鮮日報). — 1920.07.22.
11. Choson Ilbo (朝鮮日報). — 1921.05.02.
12. Kim Gi-cheol. 사진으로 뽑은 국내 최초 ‘미스 코리아’ 1931년 잡지 삼천리 주최...이광수 염상섭 나혜석 최승희 등이 심사위원 // Chosun Ilbo. — 2025.
13. Choson Ilbo (朝鮮日報). — 1934.04.24.
14. Kim Kyung-nam (김경남). 1910년대 『매일신보』의 여성 담론과 식민지 여성 만들기 // 젠더와 사회. — 2022. — Vol. 1, No. 33. — P. 51–71.
15. Lee Min-joo (이민주), Choi I-sook (최이숙). 매일신보의 ‘부인과 가정’란을 통해 살펴본 1920년대 초반 ‘부인’에 대한 시선 // 한국언론학회. — 2016. — Vol. 60, No. 6. — P. 219–247.
16. Lim Jeong-bin (임정빈). 개화기 한국가정생활: 매일신보 사설을 중심으로 (Korean Family Life in Early 20th Century: Editorial of Maeil-Shinbo, 1910–1945) // 한국가족자원경영학회지. — 1999. — Vol. 3, No. 1. — P. 95–104.
17. Lee So-yeon (이소연). 일제강점기 여성잡지 연구 - 1920·30년대를 중심으로 // 이화사학연구. — 2002. — No. 29. — P. 201–230.